



# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023-YIL YANVAR - DEKABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-203-88-07

## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023-yil yanvar – dekabr oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar – dekabr oylarida shahar korxonalarini tomonidan 123,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar – dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,1 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 102,7 trln. so'mni tashkil etdi.




*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 6,1 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 19,6 % ga, Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 1,8 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 20,9 % ga o'sish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.






Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,6 trln so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**  
(yanvar – dekabr oylarida, % da)



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


| Sanoat mahsulotlari            | 2022-yil<br>yanvar - dekabr | 2023-yil<br>yanvar - dekabr | Farqi<br>+/- |
|--------------------------------|-----------------------------|-----------------------------|--------------|
| Neft, <i>ming t.</i>           | 663,0                       | 660,2                       | -3,0         |
| Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i> | 35246,5                     | 33551,8                     | -1694,7      |
| Gaz kondensati, <i>ming t.</i> | 717,1                       | 649,8                       | -67,3        |
| Chaqiq tosh <i>ming t.</i>     | 3813,5                      | 569,1                       | -3244,4      |
| Shagʻal <i>t.</i>              |                             |                             |              |

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 102,6 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,1 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar – dekabr oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,4% ni (2022-yilning yanvar – dekabr oylarida – 7,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,5 % (22,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 32,3 % (28,8%) va quyi texnologiyalisi – 39,8 % (41,2%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,8 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 14,0 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,8% (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,1 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,8 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2023-yilning yanvar – dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 136367 tonna Yumshoq bug'doy va spelta uni mahsuloti (4,1 marta ga oshgan), 216,6 tonna daftarlari (82,7% ga oshgan), 18337,7 tonna Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar (9,5 %) va hamda 1308 tonna Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofirovka qilish uchun qog'oz (o'rtacha taramlangan )(8,1%) ishlab chiqarilishi o'sganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


O'simlik yog'i  
(tozalangan)



Margarin va yormalar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Pivo




Aroq



Uzum vinosi



Tamaki mahsulotlari



Paxta kalavasi




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari**  
**tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| <b>Sanoat mahsulotlari</b>  | <b>2022-yil<br/>yanvar - dekabr</b> | <b>2023-yil<br/>yanvar - dekabr</b> | <b>Farqi<br/>+/-</b> |
|---|-------------------------------------|-------------------------------------|----------------------|
| <b>Yumshoq bug‘doy va spelta<br/>uni, ming tonna.</b>                       | 78,2                                | 136,4                               | 58,2                 |
| <b>Paxtadan yigirilgan ip, ming<br/>tonna.</b>                              | 35,3                                | 34,5                                | -0,8                 |
| <b>Margarin va yormalar tonna.</b>  | 6401,2                              | 3669,4                              | -2731,8              |
| <b>Pivo – mln litr</b>  | 76,3                                | 119,8                               | 43,5                 |
| <b>Traktorlar - dona</b>  | 162,0                               | 11,0                                | -151,0               |
| <b>Sovutgich va muzlatgichlar -<br/>ming dona</b>                           | 709,1                               | 595,6                               | -113,5               |
| <b>Akril va vinil polimerlari<br/>asosidagi bo‘yoqlar va<br/>laklar, t.</b> | 15682,0                             | 16216,0                             | 534,0                |
| <b>Tamaki mahsulotlari,<br/>mln. dona</b>                                   | 1836,1                              | 2231,6                              | 263,1                |

## Metallurgiya sanoati (yanvar – dekabr oylarida)



FHI  
% da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 19,9 ga ko'paygan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 14,0 % ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 126,7 va ishlab chiqarish hajmi 17287,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar – dekabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 10,7 % ga kamaygan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 016,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI  
% da




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – dekabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,0% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,2 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 12910,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – dekabr oylarida)

**FHI**  
**% da**




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,4 % ga oshgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar – dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 96,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 11470,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – dekabr oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 95,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar – dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,7 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 5029,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – dekabr oylarida)



2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 108,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 91,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1885,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar – dekabr oylarida)

2022-yilning yanvar - dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 7,2 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 3994,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar - dekabr oylarida)




2022-yilning yanvar– dekabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 165,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 55,6 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 398,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar - dekabr oylarida)

**FHI**  
% da



2022-yilning yanvar – dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirka-malar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 29,6% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 4,1 martaga oshgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oyilarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 112,9% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 5193,0 mlrd. so‘m-ni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar - dekabr oylarida)

2022-yilning yanvar - dekabroylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar - dekabroyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi 112,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4385,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar – dekabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,4 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,6 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar – dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,9 % ga oshganii kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar - dekabr oylarida, % da)



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari            | 2022-yil yanvar-dekabr | 2023-yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|--------------------------------|------------------------|------------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s     | 498,4                  | 4003,2                 | 3504,8    |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 11912,8                | 10663,4                | -1249,4   |

Elektroenergiya uzatish  
bo'yicha xizmatlar, mln so'm.


909,5

995

85,5

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar - dekabr oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,9 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar –dekabr oylarida, % da)




| Sanoat mahsulotlari   | 2022-yil yanvar-dekabr | 2023-yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|------------------------|------------------------|-----------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 164,5                  | 182,7                  | 18,2      |
| (Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna   | 374,6                  | 283,9                  | -90,7     |
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm                                       | 259,2                  | 321,6                  | 62,4      |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 11,1 % ga , oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov

berish bo'yicha xizmatlar 13,4 % ga , tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 17,8 % ga, o'sish kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 39,4 trln.so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 31,9 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 46,8 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,8 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonolari**  
*(2024-yil 1yanvar holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,8 mingta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatmoqda.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida 1468 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*